

HUDUDLARDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMLARI

Norchayev Asatullo Norbo‘tayeich

TDIU, professori, i.f.d. (DSc)

E-mail: nanuz1975@gmail.com

Annotatsiya

Maqolada hududlarda agroturizmni rivojlantirish mexanizmlari tizimli yondashuv asosida o‘rganildi. Tadqiqot davomida qishloq hududlarining turistik salohiyati, infratuzilma holati va xizmatlar sifati tahlil qilindi. Xalqaro tajriba asosida agroturizmni rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar, marketing va boshqaruv mexanizmlarining ahamiyati asoslandi. Zomin va Baxmal hududlari misolida agroturizmni tashkil etish imkoniyatlari baholandi hamda uch bosqichli rivojlanish modeli taklif etildi. Tadqiqot natijalariga ko‘ra, agroturizmni rivojlantirish mahalliy bandlikni oshirish, daromad manbalarini diversifikatsiya qilish va hududiy barqarorlikni ta‘minlashga xizmat qilgani aniqlandi. Amaliy tavsiyalar infratuzilmani rivojlantirish va boshqaruv tizimini takomillashtirishga yo‘naltirildi.

Kalit so‘zlar: agroturizm, hududiy rivojlanish, turizm infratuzilmasi, qishloq turizmi, innovatsiyalar, xizmatlar sifati, barqaror rivojlanish.

Аннотация

В статье исследованы механизмы развития агротуризма в регионах на основе системного подхода. Проведен анализ туристического потенциала сельских территорий, состояния инфраструктуры и качества услуг. На основе международного опыта обоснована роль инновационных технологий, маркетинга и механизмов управления в развитии агротуризма. На примере регионов Заамин и Бахмаль оценены возможности организации агротуризма и предложена трехэтапная модель развития. Результаты показали, что развитие агротуризма способствует росту занятости, диверсификации доходов и устойчивому развитию территорий. Разработаны практические рекомендации по совершенствованию инфраструктуры и системы управления.

Ключевые слова: агротуризм, региональное развитие, туристическая инфраструктура, сельский туризм, инновации, качество услуг, устойчивое развитие.

Abstract

The article examines mechanisms for developing agritourism in regions based on a systematic approach. The study analyzes rural tourism potential, infrastructure conditions, and service quality. Based on international experience, the importance of innovative technologies, marketing, and management mechanisms in agritourism development is substantiated. Using the examples of Zomin and Bakhmal regions, opportunities for agritourism development were assessed and a three-stage development model was proposed. The findings indicate that agritourism contributes to employment growth, income diversification, and regional sustainability. Practical recommendations were developed to improve infrastructure and management systems.

Keywords: agritourism, regional development, tourism infrastructure, rural tourism, innovation, service quality, sustainable development.

KIRISH

Respublikamiz turizmida amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida alohida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan masalalar yuzaga kelmoqda. Bu borada hududlarda agroturizmni rivojlantirish va qishloq joylarda turistlarga xizmat ko'rsatish sifatini oshirish va uni xalqaro darajaga yetkazish zarurati sezilmoqda.

Bu borada "O'zbekiston bo'ylab sayohat qilish" dasturi doirasida mahalliy va xorijiy turistlar uchun infratuzilmani qayta ko'rib chiqish belgilab berildi. Bunda turistik xizmatlar sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalarni keng qo'llash orqali mamlakatimizga xorijlik turistlar tashrifini keskin ko'paytirish, xizmatlar eksportini bir necha bor ko'paytirish, mahalliy aholining daromadlarini oshirish, xizmat ko'rsatish samaradorligini oshirishning ilmiy-uslubiy asoslarini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi¹, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi², 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi³ Qarorlari hamda sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish talab etiladi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Respublikamizda agroturizmni tashkil qilish, infratuzilmani shakllantirish va unda innovatsion texnologiyalarni qo'llash bo'yicha bir qator ilmiy ishlar amalga oshirilayotgan bo'lib, ularda asosan yangi xizmat turlarini joriy qilish turlicha talqin qilingan va ta'riflangan, lekin ularning har bittasida iste'molchiga yo'naltirilganligi asosiy o'ringa ega. Biz mazkur xulosalarga asoslanish maqsadga muvofiqligini ta'kidlab, bu borada ayrim mualliflarning fikri va mulohazalarini tahlil qilib, ularning natijalarini umumlashtirib, takomillashtirish to'g'risidagi mulohazalarimizni qisqacha bayon qilamiz. Mamlakatimiz hududlarida agroturizmni tashkil qilish murakkab jarayon bo'lib, ko'plab omillarga bog'liq bo'ladi.

Bu jarayonlarning nazariy jihatlarini ishlab chiqib, amaliyotga tatbiq qilish borasida yetakchi xorijlik olimlar Brighton Nyagadza, Farai Chigora, Azizul Hassan tomonidan "Agritourism in Africa" -deb nomlangan kitobida agroturistlarga ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishda innovatsion texnologiyalar yetakchi rol o'ynashi borasida mulohazalar yuritiladi. Yana bir guruh xorijlik olimlar Aaron Blacka,

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son "Turizm yo'nalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-6549286>

³ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son "Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori <https://lex.uz/docs/-6456786>

Pierre Couture, Charles Coale, John Dooley, Andy Hankins, Ann Lastovica, Brian Mihalik, Charlotte Reed, Muzzo Uysallar tomonidan chop etilgan “Agri-tourism” -deb nomlangan asarda agroturizmni boshqarish usullarini qo‘llash orqali samaradorlikka erishish ustida tadqiqotlar olib borgan. Mualliflar ko‘rib o‘tilgan omillarni amalga oshirishda marketingni qo‘llash jarayonlariga yetarlicha e‘tibor qaratmagandir.


Shu jumladan mamlakatimiz olimlaridan Q.X.Abdurahmanov, N.T.To‘xliyev, M.Q.Pardayev, A.A. Eshtayev, A.M.Abduvohidov, M.T.Aliyeva, , D.X.Aslanova, B.N.Navro‘z-zoda, O.M. Pardayev, O.H. Xamidov, B.Sh. Safarov, N.S. Ibragimov, A.T. Mirzaevlar turistlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga ta‘sir etuvchi omillar aniqlashga katta hissa qo‘shgan. Ta‘kidlash kerakki, hozirgi vaqtda hududlarda agroturizmni rivojlantirish, turistlarga xizmat ko‘rsatish sifatini oshirishga va sohaga innovatsion texnologiyalar joriy qilish borasida ko‘plab mualliflar o‘rtasida yagona tushuncha mavjud emas. Fikrimizcha bu borada hali olib borilishi kerak bo‘lgan tadqiqotlarning ko‘lami keng bo‘lib, turistik xizmatlarning bir-biriga mutanosib rivojlanishini ta‘minlashimizda atroflicha belgilangan xalqaro tajribalarini ham hisobga olishimiz lozim.

METODOLOGIYA

Tadqiqotda mamlakatimizning qishloq joylarida turistlarga sifatli xizmat ko‘rsatishni amalga oshirishda yaqin yillarda kutilayotgan innovatsion o‘zgarishlarni hisobga olish va shu orqali turizmning rivojlanishini yaxlit infratuzilma sifatida o‘rganish metodologiyasi qo‘llanilib, bu borada mutaxassislar fikrini o‘rgangan holda, kuzatish, qiyoslash, empirik tadqiqot, tizimli va qiyosiy tahlil hamda ekspert baholash kabi usullari orqali qishloq turizmi infratuzilmasining tarkibiy qismlari rivojlanishi yo‘nalishlarini belgilab berish usuli taklif etilgandir. Respublikamizda agroturizmning rivojlanishi yo‘nalishlarining ustuvor vazifalariga oid xulosalar qilingan va respublikamizda turistlarga agroturistik xizmatlar ko‘rsatishni takomillashtirishga oid aniq tavsiyalar ishlab chiqilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Agroturizm zamonaviy turizmning bir sektori sifatida tez rivojlanayotgan sohalardan biri bo‘lib, ayniqsa pandemiyadan keyingi davrda unga talabning ortishi kuzatilmoqda. Umuman olganda jahonda so‘nggi bir necha o‘n yilliklar ichida uni alohida turdagi turizm deb hisoblash mumkin bo‘ldi, aniqrog‘i, o‘tgan asrning 80-yillari o‘rtalariga kelib Yevropaning rivojlangan davlatlarida bu sohaga e‘tibor kuchayib bordi. Bunga sabab qilib qishloq joylarining resurslaridan samarali foydalanish orqali aholini ijtimoiy himoya qilishni ko‘zda tutilgan. Agroturizm o‘ziga xosligi shundaki, agroturizm komplekslari qishloq joylarda joylashganligidadir. Faqat agroturizmni dehqonchilikka bog‘lamaslik kerak. Ayrim davlatlarda fermerlar ushbu turdagi turistik faoliyat bilan shug‘ullanishlari ko‘zda tutilsa, boshqa hollarda agroturizm turlari qishloqning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda ishlab chiqiladi. Shuning uchun bu faqat fermer xo‘jaliklarida tashkillashtiriladi degan tushunchani bermaydi.



1-rasm. Hududlarda agroturizmni rivojlantirish mexanizmini¹.

Xalqaro tajribalar shuni ko'rsatadiki, ushbu turdagi kichik biznes turida turizmni yaxshilash qishloq aholisini ishlab chiqarish sohasidan xizmatlar sohasiga o'tkazish imkonini beradi. Asosiy vazifa iqtisodiy rivojlanishdan tashqari, bu yerda ijtimoiy va madaniy maqsadlarni ham o'z ichiga olgan hududlarni rivojlantirishga turtki berishdir. Yevropada agroturizmning asosiy tushunchasi qishloq joylarida kichik oilaviy biznes turi sifatida agroturizmni rivojlantirishga asoslangan.


Yuqorida keltirilganlarni hisobga olib, hozirgi kundagi olib borilayotgan tadqiqotlarni tahlil qilgan holda, hududlarda agroturizmni rivojlantirish mexanizmini taklif qilamiz. (1-rasm)

¹ Muallif ishlanmasi

Mintaqadagi qishloqlarda agroturizmni rivojlantirish uchun ularning turistik va rekreatsiya maqsadlarida foydalaniladigan obyektlarini bosqichma-bosqich kengaytirib borish zarur.

Mamlakatimizning qishloqlarida agroturizmni rivojlantirish mexanizmi orqali ulardan turistik maqsadda foydalanishni yoʻlga qoʻyish, mahalliy aholini ish bilan taʼminlash, ularning ekologik va turistik madaniyati va bilimlarini oshirish, ekologik va qishloqlarda iqtisodiy barqarorlikni taʼminlashga erishish mumkin.

Tadqiqotimizni olib borishdan maqsad mamlakatimiz hududlaridagi tarixiy obidalar va alohida muhofaza qilinadigan hududlar hamda koʻllar atrofidagi qishloq joylarda agroturizmni tashkil qilish maqsadga muvofiqligidan kelib chiqib yondashilsa, jumladan, Zomin, Baxmal tumanlari togʻ va togʻ oldi hududlarida milliy tabiat bogʻida va uning atrofida agroturizmni tashkil qilish imkoniyati juda katta. Bu borada bir qator loyihalar ishlab chiqilgan boʻlib, uni amalga oshirishda infrastrukturaviy muammolar yuzaga kelmoqda.



2-rasm. Zomin, Baxmal tumanlari togʻ va togʻ oldi hududlarida agroturizmni rivojlantirish loyihalari¹.

Taklif qilinayotgan mazkur loyiha 3 bosqichda ekoturizm, agroturizm va etnik turizmni oʻz ichiga oladi. U qayd etilgan tumanlarda infratuzilmani rivojlantirish

¹ Manba asosida moslashtirildi <https://kun.uz/87239667>

maqsadida, yangi turistik inshootlar qurilishi bilan agroeko manzara boyitiladi va turistlar uchun sharoitlar yaratiladi.

Mamlakatimizda agroturizmni rivojlantirish uchun bir qator o‘zaro tarmoqlar va hududlararo masalalarni hal qilish zarur bo‘lganligi uchun asosiy vazifa va maqsadlari nazarda tutuvchi Agroturizm assotsiatsiyasini tashkil qilishni tavsiya etamiz.

Agroturizm assotsiatsiyasining maqsadi - mintaqada qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtiruvchi subyektlarni birlashtirish va ularning faoliyatini muvofiqlashtirish hamda ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatning samarali shakli sifatida agroturizmni rivojlantirishdan iborat bo‘ladi.

Agroturizm assotsiatsiyasi manfaatdor tomonlar, tashkilotlar, muassasalar bilan uchrashuvlar va seminarlar o‘tkazadi hamda hududdagi qishloqlarda agroturizm rivojlanishini muvofiqlashtirib boradi:

- mahalliy hokimiyat organlari va o‘z-o‘zini boshqarish uyushmalari;
- tabiatni muhofaza qilish tashkilotlari;
- hududdagi mahalliy aholi;
- tur-biznes subyektlari;
- turizm qo‘mitasi.

Tadqiqotlarimiz natijalaridan kelib chiqqan holda, quyidagi xulosa va takliflarni bildirish mumkin:

- birinchidan, istiqbolda tog‘ va tog‘oldi hududlaridagi qishloqlarda agroturizmni rivojlantirish orqali yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish mumkin;
- ikkinchidan, tog‘ va tog‘oldi hududlaridagi qishloqlardagi mahalliy aholi turmush tarzini o‘rganish asosida agroturizmni keng joriy qilish;
- uchinchidan, hududda turistik infratuzilmani rivojlantirish, bir tomondan, turistik firmalarning faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ikkinchi tomondan, mahalliy xalqning mehmondo‘stligi hisobiga uy mehmonxonalarni tashkil qilish;
- to‘rtinchidan, hududlarda texnik tomonlama servis xizmati ko‘rsatish shoxobchalarini ochishni (avtomobil ta‘mirlash, oshxona xizmati, motel, dorixona, telefon va h.k.) yo‘lga qo‘yish;
- beshinchidan, hududlarga turistlarni kengroq jalb qilish maqsadida ekskursovodlar va gidlarni keng tarzda o‘qitish va o‘rgatish, reklama bukletlari yoki prospektlarini tayyorlash, ko‘p nusxada markazlashgan holda chop qilish hamda respublikamizning barcha mintaqalaridagi yetakchi turistik agentliklarga, firmalarga, mehmonxonalarga bepul tarqatish;

Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish va yangi agroturistik marshrutlar asosida sayohatlarni tashkil qilish hududlarda turizmni rivojlantirishda muhim qadam bo‘ladi deb hisoblaymiz.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Mamlakatimiz hududlarida kelajakda tog‘ va tog‘oldi qishloqlarida agroturizmni rivojlantirish orqali:

- mahalliy aholi uchun yangi ish o‘rinlarini tashkil qilish;
- hududlarda qishloqlardagi mahalliy aholi turmush tarzini o‘rganish asosida agroturizmni keng joriy qilish;

- hududda turistik infratuzilmani rivojlantirish, bir tomondan, turistik firmalarning faoliyatini yoʻlga qoʻyish, ikkinchi tomondan, mahalliy xalqning mehmondoʻstligi hisobiga uy mehmonxonalarni tashkil qilish;

- hududlarda texnik tomonlama servis xizmati koʻrsatish shoxobchalarini ochishni (avtomobil taʼmirlash, oshxona xizmati, motel, dorixona va h.k.) yoʻlga qoʻyish;

- hududlarga tashrif buyurgan turistlarga ekologik toza qishloq xoʻjaligi mahsulotlari uchun mahalliy yetkazib beruvchilardan oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarni sotib olishni yoʻlga qoʻyish;

- hududlarda agroturistlarga xizmat koʻrsatayotgan mehmon uylarga tashrif buyurgan turistlarga yashil tashabbuslar haqida maʼlumot berish va uni qoʻllab quvvatlaganlarni ragʻbatlantirish, nomerlarga energiya va suvni tejash amaliyotlari haqida eslatmalarni joylashtirish;

- hududlarda turistlarga xizmat koʻrsatuvchi xodimlarning malakasini oshirish va qayta tayyorlash amaliyotini doimiy ravishda takomillashtirib borish;

- hududlarda turistlarga xizmat koʻrsatish faoliyatini muvofiqlashtirish uchun doimiy ravishda monitoring olib borish.

Ushbu amallarni bajarish orqali hududlarda agroturizmni rivojlantirish, atrof-muhitni sezilarli darajada himoya qilish, barqarorlikni yaxshilash va ekologiyaga eʼtiborli turistlarni jalb qilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Aaron Blacka, Pierre Couture, Charles Coale, John Dooley, Andy Hankins, Ann Lastovica, Brian Mihalik, Charlotte Reed, Muzzo Uysal. Agri-tourism. 580 California St., Suite 400 San Francisco, CA, 94104. 2025 y. https://www.academia.edu/8602504/Agri_tourism_handbook.

2. A.N. Norchayev. Qoraqalpogʻiston Respublikasi Ellikqalʼa tumanida turizm klasterini joriy qilish mexanizmi. //Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2024, 04-son. <https://green-eco.uz/index.php/GED/article/view/1829>

3. A.N. Norchaev. Directions for implementing the innovative digital technologies in tourism. //Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot. 2025, 05-son. <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/journal/index.php/GED/article/view/5751>

4. www.unwto.org

5. www.uzbektourism.uz

6. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026 yillarga moʻljallangan Yangi Oʻzbekistonning taraqqiyot strategiyasi toʻgʻrisida”gi Qarori <https://lex.uz/ru/docs/-5841063>

7. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 27-iyuldagi PQ-238-son “Turizm yoʻnalishidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va sohada davlat boshqaruvi tizimini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi Qarori <https://lex.uz/docs/-6549286>

8. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 26-apreldagi PQ-135-son “Respublikaning turizm salohiyatini jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy

turistlar sonini yanada oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori
<https://lex.uz/docs/-6456786>

9. Axmadovich X. Z. et al. O‘ZBEKSTONDA SHAKLLANGAN TO‘QIMACHILIK KLASTERLARINING IQTISODIY SALOHIYATI VA SAMARADORLIGI //Scientific Journal of Actuarial Finance and Accounting. - 2024. - T. 4. - №. 02. - C. 106-115.



Marketing

ilmiy, amaliy va ommabop jurnali

Muharrir:

Ingliz tili muharriri:

Rus tili muharriri:

Musahhih:

Sahifalovchi va dizaynerlar:

Xakimov Ziyodulla Axmadovich

Tursunov Boburjon Ortiqmirzayevich

Kaxramonov Xurshidjon Shuxrat o'g'li

Karimova Shirin Zoxid qizi

Sadikov Shoxrux Shuxratovich

Abidjonov Nodirbek Odijon o'g'li

2026-yil, aprel, 4-son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar mas'ul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga murojaat qilish mumkin. Ilmiy maqola, ommabop maqola, reklama, hikoya va boshqa ilmiy-ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

Elektron pochta:

info@marketingjournal.uz

Bot:

[@marketinjournalbot](https://t.me/@marketinjournalbot)

Tel.:

+998977838464, +998939266610

Jurnalning rasmiy sayti: <https://marketingjournal.uz>

Marketing jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi **Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2024-yil 04-oktabrdagi 332/5 sonli qarori** bilan milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnali 2024-yil 15-martdan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan **C-5669517** reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan. **Litsenziya raqami: №240874**



"Marketing" ilmiy, amaliy va ommabop jurnalining xalqaro darajasi: **9710**. GOCT 7.56-2002 " Seriyali nashrlarning xalqaro standart raqamlanishi" davlatlataro standartlari talablari. **Berilgan ISSN tartib raqami: 3060-4621**